

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026
mart



**TOSHKENT SHAHRIDAGI TURIN
POLITEXNIKA UNIVERSITETI**

*Xalqaro ilmiy-amaliy onlayn konferensiya
materiallari to'plami*

**“GLOBAL RAQAMLI INTEGRATSIYALASHUV:
2030-YILGACHA YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISHDA
TEXNOLOGIK VA INDUSTRIAL SANOATNI RIVOJLANTIRISH
ORQALI MIKRO VA MAKROIQTISODIY BARQAROR
O'SISHNI TA'MINLASH DOLZARBLIGI”**

**“GLOBAL DIGITAL INTEGRATION: THE RELEVANCE OF
ENSURING MICRO AND MACROECONOMIC SUSTAINABLE
GROWTH THROUGH TECHNOLOGICAL AND INDUSTRIAL
DEVELOPMENT IN THE TRANSITION TO A GREEN
ECONOMY BY 2030”**

**«ГЛОБАЛЬНАЯ ЦИФРОВАЯ ИНТЕГРАЦИЯ:
АКТУАЛЬНОСТЬ ОБЕСПЕЧЕНИЯ УСТОЙЧИВОГО
МИКРО- И МАКРОЭКОНОМИЧЕСКОГО РОСТА ЧЕРЕЗ
РАЗВИТИЕ ТЕХНОЛОГИЧЕСКОЙ И ИНДУСТРИАЛЬНОЙ
ПРОМЫШЛЕННОСТИ В ПЕРЕХОДЕ К ЗЕЛЁНОЙ
ЭКОНОМИКЕ К 2030 ГОДУ»**

3-MAXSUS SON



74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

*Elektron nashr.
2026-yil, mart.*

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ixamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

ICT WEEK UZBEKISTAN 2025: MILLIY TEXNOLOGIYALAR HAFTALIGINING YAKUNLARI VA ULARNING O'ZBEKISTON IT-EKOTIZIMIGA TA'SIRI	16
Jumaboyev Akmaljon Sheraliyevich	
THE ROLE OF STATE FINANCIAL CONTROL IN THE EFFICIENT USE OF BUDGET FUNDS	20
Gulyor Akhmatovna Kasimova, Biybinaz Makhmut qizi Esenbaeva	
РОЛЬ ЦИФРОВЫХ ПЛАТЁЖНЫХ СИСТЕМ В ФОРМИРОВАНИИ ФИНТЕХ-ЭКОСИСТЕМЫ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	22
Шамахмудова Шоира Олег кизи	
UZBEKISTAN'S STRATEGY FOR TRANSITION TO A GREEN ECONOMY: LABOR MARKET TRANSFORMATION, CHALLENGES AND PROSPECTIVE OPPORTUNITIES.....	27
Akbarova Barno Shukhratovna, Chintemirova Diyora Shukhratovna	
MODELS FOR MANAGING EDUCATIONAL REFORMS IN THE CONTEXT OF CULTURAL DIFFERENCES.....	32
Abdulmajeed Nabeel Azouz	
4-SANOAT INQILOBINING RAQAMLI TURIZMGA TA'SIRINI BAHOLASH	38
Sevinchova Nilufar Ne'mat qizi	
КОНЦЕПТУАЛЬНАЯ МОДЕЛЬ ИНТЕГРИРОВАННОЙ СИСТЕМЫ ESG-ТРАНСФОРМАЦИИ ПРОМЫШЛЕННОГО ПРЕДПРИЯТИЯ КАК ДРАЙВЕР ИНВЕСТИЦИОННОЙ ПРИВЛЕКАТЕЛЬНОСТИ.....	41
Ташпулатов Дильмурад Рустамович	
RAQAMLI IQTISODIYOTDA FOIZSIZ MOLIYA MEKANIZMLARINING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI.....	44
Adilov Zuxriddin Marip o'g'li	
XIZMAT KO'RSATISH TARMOG'INI RIVOJLANTIRISH VA BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH	47
Tadjimirzayev Anvar Abduvaxidovich	
RAQAMLI IQTISODIY DINAMIKANI KOMPLEKS FUNKSIYALAR YORDAMIDA MODELLASHTIRISH.....	52
Ibrohimova Nilufar Qahramon qizi	
SANOAT SEKTORIDA BARQAROR RIVOJLANISHNI TA'MINLASHDA "YASHIL" INVESTITSİYALARINING IQTISODIY AHAMIYATI.....	55
Ibragimov Zaxid Taxirovich	
LOGISTIKA PROVAYDERLARI XIZMATLARIDAN FOYDALANISH ASOSIDA TEMIR YO'L TRANSPORTI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH.....	59
Raximov Xasan Shukurjonovich	
СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ К ИСПОЛЬЗОВАНИЮ ИНСТРУМЕНТОВ УПРАВЛЕНИЯ ПРОЕКТАМИ В РАЗЛИЧНЫХ ОТРАСЛЯХ ЭКОНОМИКИ	64
Сидиков Зиёдулло Равшанович, Холиярова Шохиста Кахрамоновна	
SUG'URTA TASHKILOTLARINING BOZOR IQTISODIYOTIDAGI AHAMIYATI	68
Azamatova G.I.	
DON MAHSULOTLARINI YETISHTIRISH VA QAYTA ISHLASHDA INVESTITSİYALAR SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	71
Po'latova Sug'diyona, S.Y.Xamidova	
MAHALLIY BUDJETLARNING DAROMAD BAZASINI KENGAYTIRISH ASOSIDA XARAJATLAR BARQARORLIGINI TA'MINLASH (SURXONDARYO VILOYATI MISOLIDA).....	74
Safarmurodova Marjona To'raqulovna	
O'ZBEKISTONDA INVESTITSIYA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA SOLIQ IMTIYOZLARI VA PREFERENSIYALARINING IQTISODIY AHAMIYATI.....	77
Allaberganova Kumush Javlonbek qizi, Beknazarova N.T.	



DAVLAT SEKTORIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONLARI VA ULARNING IQTISODIY AHAMIYATI	80
Abdullayev Bobirjon Mamurjanovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT MOLIIYASI TIZIMINING ZAMONAVIY HOLATI TAHLILI.....	84
Berdibekov Adhamjon Ilhomjon o'g'li	
MOLIYAVIY NAZORATNI TASHKIL ETISHNING ZAMONAVIY MEXANIZMLARI.....	87
Ashirov Jasur Dilshod o'g'li	
SUN'IY INTELLEKT YORDAMIDA MOLIIYAVIY INKLYUZIYANI OSHIRISH IMKONIYATLARI.....	90
Lazizbek Ravshanov Baxtiyor o'g'li	
NOMODDIY AKTIVLAR AUDITIDA RISKLARNI BAHOLASH VA AUDITORLIK DALILLARINI TO'PLASH USLUBIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH	93
Ishanqulov Izzatilla Nurillayevich	
MEHNAT HAQI AUDITINING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI VA XALQARO AUDIT STANDARTLARI (ISA) KONTEKSTIDAGI TALQINI	96
Nomozov Ilhomjon Ziyodullo o'g'li	
INNOVATSION RIVOJLANISHDA MEHNAT RESURLARINING O'RNI VA AHAMIYATI	98
Artiqova O'g'iljon Zafar qizi	
THE IMPACT OF INFLATION AND EXTERNAL ECONOMIC SHOCKS ON THE NATIONAL ECONOMY.....	102
Suvonov Tolmasjon Faxritdinovich	
REWARD SYSTEMS AND EMPLOYEE PRODUCTIVITY IN HIGHER EDUCATION.....	105
Sultonboyeva Munira Bahodirovna, Sultanova Kamila Muktorali Kizi	
THE DIGITAL CATALYST: HOW TECHNOLOGICAL ACCESSIBILITY DRIVES GLOBAL TOURISM	110
Freshta Qayoumi	
BIZNES JARAYONLARINI MODELLASHTIRISH ORQALI KORXONA SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	112
Qarshiyeva Moxinur Olim qizi	
ASSESSMENT AND ANALYSIS OF INVESTMENT EFFICIENCY BY REGION IN UZBEKISTAN	115
Otajonova Charoskhon Polvonkuli qizi	
УЗВЗВМОСТИ АРІ В ЦИФРОВЫХ ПЛАТЕЖНЫХ СЕРВИСАХ И ИХ ВЛИЯНИЕ НА ОНЛАЙН ТРАНСГРАНИЧНЫЕ ДЕНЕЖНЫЕ ПЕРЕВОДЫ	120
Садыков Азиз Миршарапович	
РАЗВИТИЕ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЁТА В УСЛОВИЯХ СТРУКТУРНЫХ ИЗМЕНЕНИЙ В ЭКОНОМИКЕ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	124
Валижонов Х.А.	
O'YINCHOQ ISHLAB CHIQRISHDA IMPORTGA QARAMLIKNI KAMAYTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY USULLARI (O'ZBEKISTON MISOLIDA)	127
Aminov Anvarxon Kazimovich	
ФАКТОРЫ И ПРОБЛЕМЫ ОСУЩЕСТВЛЕНИЯ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ МЕЖДУНАРОДНЫХ ДЕНЕЖНЫХ ПЕРЕВОДОВ В УЗБЕКИСТАНЕ	130
Гимранова О. Б.	
TRANSFORMATSIYALASHUV SHAROITIDA INVESTITSİYALAR VA INVESTITSION JOZIBADORLIKNI BAHOLASH	134
To'rayev Jasurali To'rayevich	
РОЛЬ СИТУАЦИОННОГО ЦЕНТРА В РАЗВИТИИ ЦИФРОВОГО ЗДРАВООХРАНЕНИЯ: МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ И ПЕРСПЕКТИВЫ ДЛЯ УЗБЕКИСТАНА.....	137
Омонов Олим Муродуллаевич	



IMPROVEMENT OF MANAGEMENT MECHANISMS FOR INCREASING THE INVESTMENT ATTRACTIVENESS OF REGIONS.....	140
To'rayev Jasurali To'rayevich	
DEVELOPMENT OF MODERN METHODOLOGICAL APPROACHES IN THE MANAGEMENT OF THE ACTIVITIES OF SMALL INDUSTRIAL ZONES	144
Shodmonkulov Kamoliddin Murodillayevich	
ISSUES OF IMPROVING THE MANAGEMENT OF THE INVESTMENT ENVIRONMENT.....	147
To'rayev Jasurali To'rayevich	
ISSUES OF IMPROVING THE METHODOLOGY OF MANAGEMENT OF SMALL INDUSTRIAL ZONES.....	150
Shodmonkulov Kamoliddin Murodillayevich	
IQTISODIY XAVFSIZLIK INDIKATORLARINING CHEGARAVIY QIYMATLARINI BELGILASH MASALALARI.....	153
Islamov Anvar Ashirqulovich	
ARTIFICIAL INTELLIGENCE AND BIG DATA APPLICATIONS IN UNIVERSITY MANAGEMENT: EVIDENCE FROM UZBEKISTAN	156
Berdiyev Temurbek Makhmudullo ugli	
ASSESSING DIGITAL MATURITY IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS: AN INTEGRATED FRAMEWORK APPROACH	160
Berdiyev Temurbek Makhmudullo ugli	
ANALYSIS OF THE CURRENT STATE OF PRODUCTION COMPETITIVENESS IN TEXTILE ENTERPRISES AND THE ECONOMIC MECHANISMS OF ITS FORMATION.....	164
Xushvaqto'v Shuhrat Abduraufovich	
FOREIGN EXPERIENCE IN ORGANIZING COMMERCIAL BANK AUDITS AND ITS APPLICATION IN UZBEKISTAN	166
Ibragimov Nodirbek Baxodir ugli	
PROBLEMS IN COMMERCIAL BANK AUDIT PRACTICE AND DIRECTIONS FOR THEIR SOLUTION	168
Ibragimov Nodirbek Baxodir ugli	
IMPLEMENTATION OF SUSTAINABLE DEVELOPMENT PRINCIPLES IN ECO-FRIENDLY HOTELS.....	170
Dilfuza Igamberdievna Abidova	
OPPORTUNITIES FOR APPLYING NATURAL RESOURCE CONSERVATION TECHNOLOGIES IN HOTEL MANAGEMENT.....	173
Dilfuza Igamberdievna Abidova	
TO'QIMACHILIK KORXONALARIDA STRATEGIK REJALASHTIRISHNI AMALGA OSHIRISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	177
A.Y. Mardanov	
РОЛЬ ИННОВАЦИЙ И МАРКЕТИНГОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ В РАЗВИТИИ ХИМИЧЕСКОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ УЗБЕКИСТАНА(НА ПРИМЕРЕ АО «МАХАМ-ШИРЧИҚ»)	180
Хайдарова Камола Ахинжанована	
O'ZBEKISTONDA UY-JOY QURILISHINI RIVOJLANTIRISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	183
Usmonov Mirumar Abdulla o'g'li	
ВНЕДРЕНИЕ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В РАСЧЕТ ЭКОНОМИЧЕСКИХ ЗАТРАТ НА СТРОИТЕЛЬНЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ.....	185
Асадова Мафтуна Саъдуллаевна	



IMPROVING THE ECONOMIC POTENTIAL OF OIL AND GAS INDUSTRY ENTERPRISES IN UZBEKISTAN: MODERN CHALLENGES AND DEVELOPMENT PROSPECTS	188
Bekmuhammedova Malika Iskandarbekovna	
ПЕРСПЕКТИВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ ПРЕДПРИЯТИЙ НЕФТЕГАЗОВОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ	191
Бекмухамедова Малика Искандарбековна	
РОЛЬ ИНВЕСТИЦИЙ И ИННОВАЦИЙ В ПОВЫШЕНИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЙ НЕФТЕГАЗОВОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ	193
Бекмухамедова Малика Искандарбековна	
РАЗВИТИЕ СИСТЕМЫ ГОСУДАРСТВЕННОЙ ФИНАНСОВОЙ ПОДДЕРЖКИ ВОВЛЕЧЕНИЯ МАЛООБЕСПЕЧЕННЫХ СЕМЕЙ В ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКУЮ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ	195
Ережепов Куанышбай	
KORXONALAR DAROMADLARI VA XARAJATLARINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	198
Aymuxammedova Amina Kakajanovna	
KICHIK BIZNESNI MOLIYALASHTIRISHNING ZAMONAVIY USULLARI	201
Jubanova Bayramgul Aymuratovna	
KNOW YOUR CUSTOMER MECHANISMS AS A TOOL FOR ENHANCING RISK MANAGEMENT SYSTEMS IN COMMERCIAL BANKS	204
Sherzod Fayziyev	
ТЕОРЕТИКО-НАУЧНЫЕ ОСНОВЫ ПОВЫШЕНИЯ ЭКОНОМИЧЕСКОГО ПОТЕНЦИАЛА ПРЕДПРИЯТИЙ НЕФТЕГАЗОВОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ.....	208
Бекмухамедова Малика Искандарбековна	
IQTISODIY XAVFSIZLIKNI BAHOLASHDA XALQARO TAJRIBANING AHAMIYATI	213
Islamov Anvar Ashirqulovich	
IMPROVING THE MECHANISMS FOR THE ECONOMIC DEVELOPMENT OF THE INDUSTRIAL SECTOR BASED ON STRUCTURAL CHANGES AND INFRASTRUCTURAL FACTORS	217
Ne'matov Shokhrukhbek Mamurjon o'g'li	
THE ROLE OF FOREIGN INVESTMENT IN AGRICULTURE AND ITS IMPROVEMENT	220
Komaliddin Yusupov	
AVIAYUK ZANJIRIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK (DXSH) MEKANIZMI: XALQARO TAJRIBA VA O'ZBEKISTON UCHUN INSTITUTIONAL MODEL.....	224
Anvarova Dilfuza Abdusattor qizi	
AN EMPIRICAL ANALYSIS OF THE FACTORS SHAPING CONSUMER BEHAVIOUR THROUGH DIGITAL PLATFORMS IN UZBEKISTAN	228
Jumayev Bobomurod Nurmaxmat o'g'li	
ВРМН-МОДЕЛИРОВАНИЕ ЭЛЕКТРОННЫХ УСЛУГ В ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СУБЪЕКТОВ БИЗНЕСА.....	232
Отабоев Нодирбек Ойбек угли	
DIGITALIZATION OF THE BANKING SECTOR OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN: ASSESSING THE EFFECTIVENESS OF DIGITAL PLATFORMS	236
Jumaniyozova Mukaddas	
THE ROLE OF INVESTMENT RISK MANAGEMENT IN ENHANCING FINANCIAL EFFICIENCY IN AGRICULTURE	240
Yusupov Komaliddin Bakhtiyor ugli	
QURILISH MATERIALLARI SANOATI KORXONALARIDA EKOLOGIK AUDIT VA BARQARORLIK HISOBOTINI TAKOMILLASHTIRISH	243
Mirzaev Komiljon Abdullajonovich	



USE OF FOREIGN EXPERIENCE IN ORGANIZING THE ACCOUNTING AND AUDITING OF BIOLOGICAL ASSETS	246
Axmetova S.S.	
THE SOCIOECONOMIC EFFECTS OF THE SHADOW ECONOMY: A THEORETICAL AND EMPIRICAL REVIEW	250
Rakhmonov Azizjon Sadullayevich	
IMPROVING THE MECHANISMS FOR ASSESSING INTERBANK COMPETITION IN THE DIGITAL BANKING SERVICES MARKET	257
Karimov Odiljon Boqiyevich	
QURILISH MATERIALLARI SANOATI KORXONALARIDA ISHLAB CHIQARISHNI RIVOJLANTIRISH VA RAG'BATLANTIRISH MEXANIZMLARI	262
Kutbitdinova Moxigul Inoyatovna	
XUSUSIY TIBBIYOT TASHKILOTLARIDA XARAJATLAR BUXGALTERIYA HISOBINI RAQAMLI INTEGRATSIYA VA YASHIL IQTISODIYOT TAMOYILLARI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH	265
Primkulova Zilola Abrorovna	
GLOBAL RAQAMLI INTEGRATSIYALASHUV SHAROITIDA TIBBIY XIZMATLAR BUXGALTERIYA HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH VA YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH ISTIQBOLLARI	268
Shamsikulova Moxina bonu Furkatovna	
HUDUDNI IJTIMOY-IQTISODIY RIVOJLANISHINI BOSHQARISHNING TASHKILIY-IQTISODIY YO'NALISHLARI	272
Raximov Jo'rabek Raximovich	
AHOLINI IJTIMOY HIMOYA QILISHNING TARIXIY VA SOTSIOLOGIK JIHATLARI	275
Abdullayeva Sayyora Aleksandrovna	
TEMIR YO'L ORQALI XALQARO YUK TASHISHDA BOJXONA QONUNCHILIGINI BUZISH HOLATLARI: TIPOLOGIYA, STATISTIK TAHLIL VA OLDINI OLIH CHORALARI	278
Berdiyev Abbos	



TEMIR YO'L ORQALI XALQARO YUK TASHISHDA BOJXONA QONUNCHILIGINI BUZISH HOLATLARI: TIPOLOGIYA, STATISTIK TAHLIL VA OLDINI OLISH CHORALARI

Berdiyev Abbas

O'zbekiston Respublikasi Bojxona qo'mitasi bo'lim boshlig'i

Annotatsiya. Tezisdagi temir yo'l transporti orqali xalqaro yuk tashishda sodir etilayotgan bojxona to'g'risidagi qonunchilikni buzish holatlarining tipik ko'rinishlari xavfni boshqarish nazariyasi nuqtai nazaridan ilmiy tahlil qilingan. O'n bitta real aniqlangan holat statistik jihatdan umumlashtirilib, yashirish usullari tasnif etilgan, hujjatlarni mantiqiy tekshirish indikatorlari tizimlashtirilgan hamda oldini olish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: bojxona to'g'risidagi qonunchilik, noqonuniy tovar aylanishi, xavf indikatorlari, hujjatlarni tahlil qilish, inspeksion-ko'rik majmuasi, SMGS yuk xati, xavfni boshqarish tizimi, aniqlash ehtimoli.

Abstract. This thesis provides a scientific analysis of the typical forms of customs legislation violations occurring in international rail freight transportation from the perspective of risk management theory. Eleven real identified cases were statistically generalized, concealment methods were classified, logical verification indicators of documents were systematized, and scientifically grounded proposals for prevention were developed.

Keywords: customs legislation, illegal circulation of goods, risk indicators, document analysis, inspection and examination complex, SMGS consignment note, risk management system, detection probability.

Аннотация. В тезисе с точки зрения теории управления рисками проведён научный анализ типичных форм нарушений таможенного законодательства при международных грузовых перевозках железнодорожным транспортом. Обобщены статистические данные по одиннадцати реально выявленным случаям, классифицированы способы сокрытия, систематизированы индикаторы логической проверки документов, а также разработаны научно обоснованные предложения по предупреждению таких нарушений.

Ключевые слова: таможенное законодательство, незаконный оборот товаров, индикаторы риска, анализ документов, инспекционно-досмотровый комплекс, накладная СМГС, система управления рисками, вероятность выявления.

KIRISH

Temir yo'l transportining o'ziga xos xususiyatlari — bir vaqtning o'zida yuzdan ortiq vagonni o'z ichiga olgan uzun tarkiblarning harakatlanishi, vagonlarning murakkab konstruktiv tuzilishi (kuzov, tom, devorlar, yurish mexanizmlari), shuningdek, chegara o'tkazish punktlarida nazorat vaqtining cheklanganligi (rasmiylashtirish — 1 soat, ko'zdan kechirish — 45 daqiqa) — uni boshqa transport turlariga nisbatan bojxona qonunchiligini buzish xavfi mavjud bo'lgan yo'nalishlardan biriga aylantiradi. Shu bois, huquqbuzarliklarning tipik ko'rinishlarini ilmiy tizimlashtirish va ularni aniqlash indikatorlarini ishlab chiqish amaliy va nazariy ahamiyatga ega dolzarb masala hisoblanadi.

Uslubiy qo'llanmada keltirilgan 2024–2025-yillardagi 11 ta hujjatlashtirilgan holat misolida bu muammoning miqyosi yaqqol namoyon bo'ladi: aniqlangan tovarlarning umumiy taxminiy qiymati 57,5 mlrd so'mdan ortiqni tashkil etadi, bu esa bojxona nazoratining iqtisodiy xavfsizlik funksiyasining amaliy ahamiyatini tasdiqlaydi.

Tadqiqot xavfni boshqarish nazariyasi (risk management theory) va «qizil bayroq» indikatorlari (red flag indicators) konsepsiyasiga asoslanadi. Jahon bojxona tashkilotining xavfni boshqarish bo'yicha uslubiy qo'llanmasiga (WCO Risk Management Compendium) ko'ra, bojxona huquqbuzarliklarini aniqlashning ikki asosiy yo'li mavjud: 1) hujjatli nazorat (documentary control) — tovar kuzatuv hujjatlaridagi ichki nomuvofiqliklarni mantiqiy tahlil qilish; 2) jismoniy nazorat (physical control) — texnik vositalar (IKM, elektron tarozi, xizmat itlari) yordamida tovarning haqiqiy holatini tekshirish. Tadqiqot doirasida tahlil qilingan barcha holatlar ushbu



ikki usulning uyg'unlashgan qo'llanilishi natijasida oshkor etilgani aniqlandi, bu nazariy modelning amaliyotda tasdiqlanganini ko'rsatadi.

Shuningdek, kriminalistik fanda «yashirish usullari tipologiyasi» (concealment methods typology) konsepsiyasi mavjud bo'lib, unga ko'ra huquqbuzarliklar: (a) deklaratsiyadagi nomuvofiqliklar (tovar nomini buzib ko'rsatish), (b) fizik yashirish (transport vositasi konstruksiyasida yashirish) va (v) hujjatsiz qo'shimcha yuk kabi turlarga bo'linadi. Mazkur tezisda ushbu tipologiyadan foydalanilib, temir yo'l transportiga xos empirik ma'lumotlar asosida moslashtirilgan tasniflash tizimi taklif etildi.

Tadqiqotning maqsadi — temir yo'l orqali yuk tashishda uchraydigan bojxona qonunchiligini buzish holatlarining tipik belgilarini ilmiy-statistik usulda tasnif etish, ularni oshkor etishda qo'llaniladigan usul va vositalarning samaradorligini baholash hamda kelgusida shunday holatlarning oldini olish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Vazifalar: 1) hujjatlashtirilgan holatlarni yagona tahlil bazasiga jamlash; 2) yashirish usullarini turlarga ajratish va chastotaviy tahlil qilish; 3) aniqlash vositalarining samaradorligini baholash; 4) hujjatlardagi mantiqiy nomuvofiqlik indikatorlarini tizimlashtirish.

Tadqiqotda keys-stadi (case study) usuli, kontent-tahlil, chastotaviy statistik tahlil hamda qiyosiy-huquqiy tahlil usullaridan foydalanildi. Asosiy empirik baza sifatida uslubiy qo'llanmada rasmiy tarzda hujjatlashtirilgan va protsessual rasmiylashtirilgan 11 ta holat, shuningdek, SMGS yuk xatidagi mantiqiy nomuvofiqliklarning 10 ta tipik misoli o'rganildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Yashirish usullarining tipologik tasnifi

Aniqlangan holatlarni yashirish usuliga ko'ra guruhlariga ajratish natijasida quyidagi tasnif hosil bo'ldi:

1-jadval

Yashirish usullarining chastotaviy taqsimoti¹

Yashirish usuli turi	Misollar soni	Ulushi, %
Tovarni boshqa nom ostida yashirish	3	27,3
Tovarni butunlay almashtirish	3	27,3
Miqdoriy ortiqcha (deklaratsiyadan ko'p)	1	9,1
Vagon/sisterna konstruktiv qismlarida yashirish	1	9,1
Hujjatsiz/qo'shimcha yuk yashirish	3	27,2

Ko'rinib turibdiki, «tovarni boshqa nom ostida yashirish» (masalan, tosh mahsuloti ichiga tamaki joylashtirish) va «tovarni butunlay almashtirish» (masalan, bug'doy o'rniga kungaboqar urug'i) usullari eng ko'p tarqalgan bo'lib, ular birgalikda barcha holatlarning 54,6 foizini tashkil etadi. Bu ikki usul ham aslida «deklaratsion aldatchilik» kategoriyasiga mansub bo'lib, ularni asosan hujjatli nazorat va texnik vositalar (IKM) yordamida oshkor etish mumkin, zero tashqi ko'rinishidan (o'rov, tara) ular deklaratsiyadagi tovarga mos kelishi mumkin.

Aniqlash vositalarining samaradorligini qiyosiy baholash

11 ta holatning aniqlanish vositalari bo'yicha taqsimoti: IKM — 4 ta holat (36,4 foiz), tezkor-qidiruv tadbirlari — 3 ta holat (27,3 foiz), elektron tarozi — 1 ta holat (9,1 foiz), xizmat iti — 1 ta holat (9,1 foiz), bojxona ko'rigi (vizual) — 1 ta holat (9,1 foiz), dastlabki shubha asosida qo'shimcha tekshiruv — 1 ta holat (9,1 foiz). Ushbu taqsimot shuni ko'rsatadiki, IKM eng samarali texnik vosita hisoblanadi, chunki u vagon ichidagi tovarlarning rentgenografik tasvirini olish orqali tashqi ko'rinishidan farq qilmaydigan yashirin yuklarni aniqlash imkonini beradi — bu an'anaviy vizual nazorat orqali aniqlanishi murakkab bo'lgan holatdir. Shu bilan birga, elektron tarozining faqat bir holatda (miqdoriy ortiqcha) samarali bo'lgani uning qo'llanish doirasi cheklanganligini — ya'ni u asosan vazn bo'yicha nomuvofiqlikni, lekin tarkib bo'yicha almashtirishni aniqlay olmasligini ko'rsatadi, bu esa texnik vositalarning kompleks (IKM + tarozi + xizmat iti) qo'llanilishi zaruratini ilmiy asoslaydi.

Hujjatlardagi mantiqiy nomuvofiqlik indikatorlari

Uslubiy qo'llanmada ajratilgan SMGS yuk xatidagi 10 ta tipik xatolik turi (sanalar nomutanosibligi, marshrutning geografik nomuvofiqligi, tovar turiga mos kelmaydigan vagon, vazn-hajm nomutanosibligi, identifikatsion raqamlardagi farqlar, yuboruvchi/qabul qiluvchi nomidagi tahrirlar, konteyner turi va yuk mosligidagi ziddiyat, mavsumga nomuvofiqlik, transport vositasiga jismoniy sig'imaslik, yuk jo'natuvchi faoliyat profiliga nomuvofiqlik, mashhur brendlar ostida yashirish, yuridik shaxsning ro'yxatga olinish sanasidagi

¹ Manba: Muallif ishlanmasi.



shubhali holatlar) — nazariy jihatdan «qizil bayroq» indikatorlari tizimini tashkil etadi. Bu indikatorlarning har biri alohida olinganda yetarli dalil bo'lmasa-da, ularning bir nechtasining bir vaqtda uchrashi (kumulyativ effekt) xavf darajasini sezilarli ravishda oshiradi va qo'shimcha tekshiruvni taqozo etadi — bu xavfni boshqarish tizimining asosiy metodologik prinsipi hisoblanadi.

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, temir yo'l transportida bojxona huquqbuzarliklarining geografik taqsimoti texnik vositalar mavjudligi bilan bog'liq: tahlil qilingan barcha 11 ta holat IKM va/yoki elektron tarozi o'rnatilgan postlarda (Xo'jadavlat, Sariosiyo, Ayritom, Savay, Chuqursoy, Bekobod) ro'y bergan. Bu, bir tomondan, ushbu postlarda nazorat samaradorligining yuqoriligini tasdiqlasa, ikkinchi tomondan, uslubiy savol tug'diradi: texnik vosita mavjud bo'lmagan 6 ta postda (Sirdaryo, Uchqo'rg'on, O'zbekiston-Farg'ona, Beshariq, Boldir, Naymanko'l) huquqbuzarlik holatlarining umuman uchramagani — ularda nazorat samarasizligi tufayli oshkor etilmayotganimi yoki obyektiv ravishda xavf darajasi pastligini anglatadimi, degan savol alohida chuqur tadqiqotni talab qiladi va bu — «tekshirilmagan zona gipotezasi» (unmonitored-zone hypothesis) sifatida keyingi ilmiy izlanishlar uchun istiqbolli yo'nalish bo'lishi mumkin.

Shuningdek, aniqlangan holatlarning katta qismida (masalan, «travertin» va «xo'jalik tovarlari» keyslarida) yashirin tovarning folga (zarqog'oz)ga o'ralgani alohida e'tiborga loyiq — bu qasddan rejalashtirilgan, texnik jihatdan rentgen nurlarini qisman sochuvchi materiallardan foydalanish orqali IKM tahlilini murakkablashtirishga urinish sifatida baholanishi mumkin. Shunga qaramay, ushbu usul samarasiz bo'lib chiqqani — zamonaviy IKM texnologiyalarining (Rapiscan Eagle R60/R90, THSCAN RF6010) yuqori aniqlik darajasini amalda tasdiqlaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tipologik va statistik tahlil natijasida temir yo'l transportida bojxona huquqbuzarliklarining asosiy xavf kategoriyasi — aksiz soliqli tovarlar (tamaki mahsulotlari, 54,5 foiz holatda), asosiy yashirish usuli esa deklaratsiya ma'lumotlarini noto'g'ri ko'rsatish holatlari (54,6 foiz) ekanligi aniqlandi. Shu asosda quyidagi ilmiy asoslangan tavsiyalar shakllantirildi:

xavfni boshqarish tizimida aksiz soliqli tovarlar (tamaki, alkogol) tashilayotgan yo'nalishlar bo'yicha avtomatik yuqori xavf darajasi belgilanishi va bunday yuklarning majburiy ravishda IKM orqali o'tkazilishi tartibga solinishi lozim;

SMGS yuk xatidagi mantiqiy nomuvofiqlik indikatorlarini (10 turdagi xatolik) avtomatik aniqlaydigan dasturiy algoritim ishlab chiqish va uni xavfni boshqarish tizimiga integratsiyalash maqsadga muvofiq;

texnik vosita mavjud bo'lmagan 6 ta postda nazorat samaradorligini baholash maqsadida maxsus monitoring tadqiqoti o'tkazilishi («tekshirilmagan zona gipotezasi»ni sinash uchun) tavsiya etiladi;

vagon konstruktiv qismlarida (telejka, bufer, kuzov devorlari) yashirish holatlarining oldini olish uchun xizmat itlaridan foydalanish amaliyotini barcha postlarda muntazamlashtirish zarur;

xodimlarning bilim va malakasini oshirish maqsadida uslubiy qo'llanmadagi nazorat savollari to'plamidan muntazam attestatsiya jarayonida foydalanish tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksi. — Toshkent: O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi (LexUZ). — URL: <https://lex.uz> (murojaat sanasi: 01.08.2026).

2. World Customs Organization. *Customs Risk Management Compendium. Volume 1.* — Brussels: World Customs Organization, 2011.

3. *Agreement concerning International Goods Transport by Rail (SMGS)* — Warsaw: Organization for Cooperation of Railways (OSJD), 1951.

4. O'zbekiston Respublikasi Bojxona qo'mitasi. Bojxona nazoratini tashkil etish va temir yo'l transportida xalqaro yuklarni bojxona nazoratidan o'tkazish tartibiga oid idoraviy me'yoriy hujjatlar. — Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Bojxona qo'mitasi.

5. Temir yo'l transporti orqali xalqaro yuk tashuvida bojxona nazorati va rasmiylashtiruvini tashkil etish bo'yicha uslubiy qo'llanma. — Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Bojxona qo'mitasi, 2025. — 81 b.

6. Albrecht W. S., Albrecht C. C. *Fraud Examination and Prevention.* — Cincinnati: South-Western, 2003.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100